

UY VA XONADONLARNI SHOVQINDAN HIMOYA QILISH USULLARI

Toshboyeva Hurshida Farhod qizi

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

Davlatov Diyor Dilshodovich

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

Anotatsiya: *Uy va xonadonlarning shovqindan himoya qilinganligi darajasi yashash joyining sanitariya-gigiyenik talablarga javob berishini va maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Uylardagi shovqinni kamaytirish uchun uning manbalarini topish va himoya qilish*

Kalit so'zlar: *Tashqi muhit, shovqin, shovqin o'lchamlari, kuchli shovqin.*

Shovqin tashqi muhitga salbiy ta'sir etuvchi zararli omillardan hisoblanadi. Uy va xonadonlarning shovqindan himoya qilinganligi darajasi yashash joyining sanitariya-gigiyenik talablarga javob berishini va maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Shovqin kishilarning asabiga, ish unumdorligiga va yetarli dam olishlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Uylardagi shovqinni kamaytirish uchun uning manbalarini topish va himoya qilish chora-tadbirlarini ko'rish zarur. Shovqin tashqaridan kelgan yoki uyni ichida hosil bo'layotgan manbadan bo'lishi mumkin. Davlat loyihalash me'yoriy hujjatlarida shovqin o'lchamlari va kuchli shovqindan saqlanish tadbirlari belgilangan. Buning uchun binoni loyihalashda shovqindan naribroq, ko'cha ichkarisiga olish, muhofaza ekranlari, daraxtlar o'tkazish kabi tadbirlar ko'zda tutiladi. Rivojlangan chet el mamlakatlarida shovqindan saqlash maqsadida turli xildagi ekranlardan foydalanishni ko'plab kuzatish mumkin. Ichki shovqin o'tishi mumkin bo'lgan joylarda bir devor, pardevorlardan ikki tomonlama yoriqlar yoki darzlar bo'lishidadir. Qo'shni kvartirani ajratuvchi devorda elektr rozetkasi bo'lsa, uni tekshirib ko'rish zarur. Qo'shni kvartirining xonasida televizor yoki radio priyomnik ishlab turganda elektr rozetkasiga quloq qo'yib eshitish kerak, so'ng devordan birmuncha naridan quloq solish kerak. Agar rozetka o'rni zaifroq bo'lsa, tovushning o'tish farqini sezish mumkin. Rozetkani ochib ko'rishdan oldin elektr shitidan tokni uzish kerak. Umuman, bu ish uchun yetarli malakaga ega bo'lmagan kishining ishlamagani ma'qul.

Yirik panelli uylarda rozetkalarini ikki qo'shni kvartiralarda ikki tomonlama teshiklarga o'rnatilish hollari ko'p uchraydi. Bunday hollarda shit pastidagi elektr taqsimlash korobkasini ham ko'rish kerak, bu yerda ikki tomonlama to'g'ri teshik ikki tomonini yengil plastmassa qopqoqlar bilan shunchaki burab berkitilgan bo'ladi. Ana shunday teshiklardan tovush bemalol o'tmasligi uchun ular orasiga 3-4 sm qalinlikda gipsdan devorcha yasash kerak. Buning uchun qolip sifatida qattiq karton yoki orgalit bo'lagidan teshikka moslab qirqib olish kerak. Qolipni teshik o'rtasiga plastilin

yordamida mahkamlash mumkin. So'ng qolipga gips qorishmasi yopishtiriladi. Yig'ma elementlarning birlashgan choklarida darzlar va yoriqlar bo'lsa, ular tovushni yuqori darajada o'tkazishi mumkin. Bir-biriga nisbatan siljishi mumkin bo'lgan konstruksiyalarning tutashuv choklarida ikki tomonlama yoriqlar bo'lishi mumkin. Pardevorlar bilan orayopma plitasi orasidagi choklar bunga misol bo'la oladi. Qator yirik panel va g'isht devorli binolarning kvartiralari orasiga gips- betonli pardevorlar qo'llaniladi. Bundan tashqari. pardevorlar bloklar va g'ishtlardan ham teriladi. Bunday pardevorlar orayopma plita ustiga o'rnatiladi. Orayopma egilsa, pardevorlar ham pasayadi va yuqorida ship bilan pardevor orasida uzun yoriq hosil bo'ladi. Ship ostidagi yoriqlar kvartiralar orasidagi yuk ko'taruvchi g'ishtli, yirik beton blokli yoki panelli devorlarda ham bo'lishi mumkin. Bunday yoriqlar tashqi devor yaqinida kattaroq bo'lib, ichkariroqda kichravadi. Kvartiralar orasidagi va tashqi devor panellari orasidagi vertikal chok qorishma bilan butunlay to'ldirilmay qolish hollari uchrab turadi. Pardevor va ship orasidagi chok ham sifatsiz to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Agar shunday joylarda yoriqlar hosil bo'lsa, maxsus pichoq va bolg'a yordamida eski qorishmani chiqarib tashlash zarur. Yuk ko'taruvchi yig'ma elementlar orasidagi yoriqlarni oddiy gipsli qorishma bilan berkitish mumkin. Buning uchun avval chokni eni va chuqurligini 10 mm ga ochish kerak. Bu jarayon maxsus pichoq yoki zubila hamda bolg'a yordamida bajariladi. Bu jarayonda ko'zga qorishma yoki beton tomchilari sachramasligi uchun himoya ko'zoynagi taqib ishlash zarur. Teshik va yoriqlar gipsli qorishma bilan berkitilayotganda gipsning juda tez qotishini hisobga olish zarur. Buning oldini olish uchun gipsning 1—2% massasiga teng keladigan miqdorda duradgorlik yelimini suvda eritib ishlatiladi. Agar yelim qo'shilmasa gips qorishmasi tez ishlatib ulgurish uchun mo'ljallanib, kam miqdorda tayyorlanadi.

Eng oddiy germetik material sifatida plastilindan foydalanish tavsiya etiladi. U uzoq davrgacha elastiklikni saqlaydi va ishlatish uchun osondir. Tashqi shovqin uyga asosan derazadan kiradi. Shovqindan himoya qiluvchi ventilatsion klapani uy sharoitida yasash ancha murakkab. Lekin oynaning tovushni izolatsiyalash xususiyatini oshirish imkoniyatlari bor. Bular deraza yopiq bo'lganda tashqaridan shovqin kirishini kamaytiradi. Buning uchun deraza yoriqlarini yo'qotish kerak. Deraza kesakisini devorning ichki tomoni bilan birlashgan joylari tekshiriladi va atrofdagi hamma yoriq va darzlar berkitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 29-dekabrda hisobga olindi, hisob raqami 5-son «TURAR JOYLARDA, JAMOAT BINOLARIDA, AHOLI YASHASH HUDUDLARIDA VA DAM OLISH ZONALARIDA RUXSAT ETILGAN SHOVQIN DARAJASINING SANITARIYA QOIDALARI VA ME'YORLARI» nomli qaroridagi umumiy qoidalar:

1. Ushbu sanitariya normalari va me'yorlari turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashaydigan hududlarda tashqi va ichki manbalardan hosil bo'ladigan shovqinning ruxsat etilgan darajalarini, shuningdek tekshirilayotgan obyektida shovqin

darajasini o'lchash, uning uslublari va uni gigiyenik baholashga bo'lgan umumiy talablarni belgilaydi.

2. Mazkur sanitariya normalari va me'yorlari maxsus binolarda (radio, telestudiyalar, teatr va kinoteatr zallari, konsert va sport zallari), shuningdek aholi yashash hududlarida samolyot va vertolyotlar parvoz vaqtida, uchganda, qo'nganda va aeroportda dvigatellarni sinab ko'rganda chiqadigan shovqinlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Ushbu sanitariya normalari va me'yorlari turar joy, jamoat binolari, texnologik, muhandislik, sanitariya-texnik uskunalarga va mashinalar, transport vositalarini loyiha, konstruksiya, texnologiya, sertifikatsiya va ekspluatatsiya talablarni belgilaydigan davlat va sohaga oid standartlar hamda barcha me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilishida hisobga olinishi kerak.

4. Mazkur sanitariya normalari va me'yorlari kuchga kirishi bilan O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2009-yil 19-iyunda 0267-09-son bilan tasdiqlangan Turar joy binolarida, jamoat binolari va uy — joy qurilishi hududlarida ruxsat etiladigan shovqin me'yorlaridan oshmasligini ta'minlashga qo'yiladigan sanitariya qoidalari va normalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu sanitariya normalari va me'yorlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tovush bosimi — o'zgaruvchan havo bosimi bo'lib, tovush tebranishi natijasida paydo bo'ladi;

doimiy bo'lmagan shovqin — vaqtda o'zgaradigan shovqin, tovush darajasi vaqt ichida 5dBA dan ortiq bo'lmagan uzluksiz ravishda o'zgaradi (misol uchun, avtotransport vositalarida hosil bo'luvchi shovqin);

tovushning ekvivalent darajasi, $L_{Aekv, dBA}$, doimiy bo'lmagan shovqin — doimiy shovqin darajasining shunday o'rtacha kvadrat tovush bosimiga ega va bu aniq vaqt davomidagi doimiy bo'lmagan shovqin;

ruxsat berilgan shovqin darajasi — bundan daraja, odam organizmining shovqinga sezgir bo'lgan funksional tizimlari va analizatorlari o'zgarishiga olib kelmaydi hamda insonda xavotir keltirib chiqarmaydi;

keng chiziqli shovqin — kengligi 1 oktavadan ortiq bo'lgan uzluksiz spektrli shovqin;

tonal shovqin — shovqin spektrida yaqqol namoyon bo'ladigan alohida (diskret) tovushlarga ega va chastotalarni 1/3 oktava chiziqlarida o'lchanganda yonma-yon joylashganlardan 10dBA ga ortib ketishi;

impulsi shovqin — ushbu shovqin bir yoki bir necha tovushli signallardan tashkil topgan bo'lib, har biri 1 sekunddan kam bo'lgan davomiylikka ega va shu bilan birga "impuls" va "sekin" vaqtga oid tavsiflarda dBA da o'lchangan tovush darajalari 7dBA dan kam bo'lmagan darajalarda farq qiladi.

Shunday qilib, uy va xonadonlarni shovqindan himoya qilish, inson ish faoliyatiga va yetarlicha dam olishga zamin yaratadi

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.M.M. Miralimov «Arxitektura (bino inshootlar qurilish konstruksiyalari)»
2. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009
- 3.M.M.Miralimov «Turar joy binolarini loyihalash asoslari» Toshkent-2008
- 4.P.Sh.Zohidov «Memor olami» Toshkent-1996
5. X.M. Ubaydullayev, M .M . Inog'omova «Turar joy va Jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» Toshkent - 2009